

MUALLIFLIK KATEGORIYASINING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Yigitaliyeva Zilola Muratovna

FDU, f. f. d.

Annotatsiya

Maqlada mualliflik kategoriyasiga xosli soniy hamda pragmatic xususiyatlar haqida fikr yuritiladi. Mualliflikni gap va matn kesimida ifodalanishi o‘rganiladi

Kalit so‘zlar: kategoriya, modus, mualliflik, nutq subyekti

Аннотация

В статье рассматриваются лингвопрагматические особенности категории авторства. Изучается выражение авторства в предложении и текстовой части.

Ключевые слова: категория, модус, авторство, субъект речи

Abstract

The article examines the linguistic and pragmatic features of the category of authorship. The expression of authorship in the sentence and text part is studied.

Keywords: category, mode, authorship, subject of speech

Jumlaning mualiflik xususiyati uning tarkibiga kiruvchi fe’l ma’nosida ifodalanadi. Bunda “nutq subyekti, baho subyekti, personaj va hikoyachi bilan harakat subyekti, predikat subyektlari o‘rtasida aloqa o‘rnataladi. Mualliflik turli nutqlarda turli usullar orqali ifodalanadi. Bu turdagи material tahlili gap sintaksisidan nutq sintaksisi, matn sintaksisi tomon yetaklaydi,” deb yozadi olima. G.A. Zolotovaning ushbu fikriga asoslangan holda, shuni aytish mumkinki, mualliflik nutq subyekti va harakat subyektini bog‘lab turar ekan, unda harakat subyektining nuqtai nazari, bahosi, dunyo qarashi ifodalanadi. Bularning baribir gap kesimidan ko‘ranutq yoki matn doirasida yaqqolroq ifodalanadi. Fikr-mulohaza, baho, munosabat individual tabiatga ega ekanligi

esa, mualliflik nutq va matndagi umumiyl modusni shakllanishiga xizmat qilishini anglatadi. Shunday ekan, mazkur lingvistik hodisani gap kesmidan ko‘ranutq yoki matn doirasida o‘rgangan maqsadga muvofiq hisoblanadi.

G.A.Zolotovaning mualliflikning tahlili gapdan matn tomon yetaklashi haqidagi fikri tilshunoslikda ilmiy tadqiqotlarni ikki guruhga ajralishiga sabab bo‘ldi. Birinchi guruh tadqiqotchilar mualliflilikni gap kesimida o‘rganadilar, mualliflikni gap modusi bilan bog‘langanligi, eksplitsit va implitsit ifodalanishi kabi masalalar ushbu tadqiqotchilar diqqat markazidadir. Ikkinci guruh tadqiqotchilar tomonidan mualliflikning boshqa matn kategoriyalari bilan aloqasi, xususan, subyektivlik, modallik, muallif obrazi, murojaat, o‘rganiladi.

Xususan, T.V.Shmeleva mualliflikni modusning kvalifikativ kategoriyalaridan deb hisoblab, o‘z fikrini quyidagicha izohlaydi: “muallif axborot uzatish paytida uni saralashga mas’ul hisoblanadi, ya’ni birinchidan o‘zimniki yoki boshqaniki tamoyiliga asoslangan holda, ikkinchidan esa, ushbu axborotni olish usuli yordamida saralaydi.” T.V.Shmeleva tomonidan “o‘zimniki”, “o‘zganiki”, deb nomlangan mualliflik xususiyati, M.V.Vsevolodovaning mazkur kategoriyani ikki turga ajratishiga sabab bo‘ldi: 1) subyektivlashtirilgan (men/biz -mualliflik) – bu tur so‘zlovchi va muallifning birligi bilan tavsiflanadi 2) obyektivlashtirilgan (sen/siz, u/ular-muallifligi) so‘zlovchi va muallif boshqa-boshqa shaxslardir.

Shuni ham ta’kidlash kerakki, T.V.Shmeleva mualliflikni gapning majburiy sifatlaridan, deb biladi. Agar mualliflik kategoriyasi gapda yoki matnda implitsit tarzda ifodalanayotgan bo‘lsa, ya’ni muallifga ishora qiluvchi ko‘rsatkichlar mavjud bo‘lmasa, bu ushbu kategorianing mualliflashtirishta moyili bilan bog‘liqligini bildiradi. Mualliflashtirishta moyiliga ko‘ra, axborot manbasi matn boshida ko‘rsatilgan bo‘lsa, ushbu manba matnni tashkil etuvchi barcha gaplarga, matnda o‘zgarish bo‘lguniga qadar taalluqli bo‘ladi. M.: “Bizning fikrimiz quyidagilardan iborat: Amerikalik mutaxassislar esa, aksincha, ekanligini ta’kidlaydilar.” Demak, birinchi manba muallifning o‘zi bo‘lsa, ikkinchi manba Amerikalik mutaxassislardir. Ayrim hollarda mualliflik

ifodaning dictum mazmunida yashiringan bo‘ladi. M.: Chaqmoq chaqdi (men uni ko‘rdim). Mazkur misol orqali hodisa visual qabul qilinayotganini va u nutqda o‘z ifodasini topayotganin iko‘rishimiz mumkin.

Shunday qilib, T.V.Shmelevaning konsepsiyasiga ko‘ra, mualliflik eksplitsit yoki implitsit tarzda ifodalanish xususiyatiga ega. Mualliflik implitsit ma’no kasb etganida, u gapning prapozitson strukturasida shakllanadi.

M.V.Vsevolodova esa mualliflikni gapning Grammatik kategoriyasi sifatida talqin qiladi hamda mualliflik ham xuddi modus kabi ma’nolar jamlanmasini tashkil etishini, ular muallif tomonidan vogelikdagi birorbir “ishning holati” haqida xabar berish uchun muallif tomonidan qo‘llanishini yozadi. M.V.Vsevolodova o‘zining ilk ishlarida mualliflik hamda modus bir ildizdan tarqagan, uzviy bog‘liq kategoriyalar bo‘lsa-da, ularni farqlash lozimligini ta’kidlagan bo‘lsa, keyinchalik u mualliflik ifodaning dictum qismiga kirishini va uning mazmunini bir qismini tashkil etishini alohida ta’kidlaydi. Uning modus va mualliflikni farqalsh haqidagi qarashlari esa uning keying ishlarida rivoj topmaydi. M.V.Vsevolodova o‘zining keying qarashlarida modusning ikki turini farqlaydi, gap modusi va matn modusi. Matndagi modusning ifoda vositalari mualliflik, sintaktik modallik va bahoning mohiyatini ifodalanishidadir, deydi olma. Demak, mualliflik modusning xususiyatlaridan biri sifatida baholanadi.

M.V.Vsevolodova T.V.Shmelevaning modus va mualliflikning o‘zaro bog‘liqligi haqidagi qarashlarini davom ettirayotgan bir paytda T.I.Krasnova mualliflikni modusning mohiyati bilan bog‘lab o‘rganadi. U modusni ikki turi mavjud ekanligini ta’kidlaydi, xususan, obyektiv va subyektiv. Modusning obyektiv turida so‘zlovchining o‘rni nolga teng bo‘lsa, uning subyektiv turida so‘zlovchining roli turli darajada namoyon bo‘ladi. T.I.Krasnova modusning subyektiv ma’nolari har bir gapda mavjud ekanligini ta’kidlar ekan, mualliflik kategoriyasi gapda “moddiyeksplikatsiya”ga, ya’nima ’lumbirko ‘rsatgichgaegabo ‘lmasligiyokibir gap kesimida

ifodalanayotgan ma’no boshqa gapga tarqalishi, ko‘chib o‘tishi mumkin ekanligini yozadi.

Shunday qilib, mualliflik tushunchasi borasida tilshunoslikda turli qarashlar mavjud bo‘lib, unga yagona umumiy yondashuv mavjud emas. T.V.Shmelevaning asarlarida mualliflik modus kategoriyasi, M.V.Vsevolodovaning asarlarida predikativlik xususiyati, T.I Krasnovaning ishlarida esa u modus tavsifi sifatida o‘rganildi. Bu esa modus va mualliflik o‘zaro uzviy bog‘liq ekanligini bildiradi.

Adabiyotlar:

1. Всеволодова М. В. Теория функционально-коммуникативного синтаксиса: Фрагменты прикладной (педагогической) модели языка. М.: Изд-во МГУ, 2000.
2. Йигиталиева, З. (2023). МОДУСНИНГ ГРАММАТИК САТҲДА ИФОДАЛАНИШИ. *O’ZBEKISTONDA INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(18), 266-270.
3. Краснова Т. И. Субъективность – Модальность (материалы активной грамматики). СПб.: Изд-во СПбГУЭФ, 2002.
4. Шмелева Т. В. Семантический синтаксис: Текст лекций. Красноярск: Изд-во КГУ, 1988.
5. Muratovna, Y. Z. (2021). Modern Interpretation of Language Modal Structure. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(10).
6. Muratovna, Y. Z. (2022). ADVERTISING AND ITS TYPES (COMPARING THE GERMAN AND UZBEK LANGUAGES). *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(10), 620-623.
7. Yigitalieva, Z. (2022, March). ANALYSIS OF TEXT CONCEPTS. In *E Conference Zone* (pp. 1-3).
8. Muratovna, Y. Z. (2022). Psychological and Cognitive Pragmatic Basis of Modus. *Eurasian Scientific Herald*, 6, 120-124.